

MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA YOSHLARNING SIYOSIY ONGINI RIVOJLANTIRISH VA PEDAGOGIK SAMARADORLIKNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

M.M. Murtozayeva

pedagogika fanlari doktori (DSc), professor,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

E-mail: dilnoza_mm_2018@mail.ru

ORCID: 0009-0008-0080-9201

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashda oliy ta'lim muassasalarining o'rnini va undagi muhitning ijtimoiy sharoitga mutanosibligi ifoda etilgan. Talabaning ijtimoiy hayotdagi unib o'sishi, jamiyat hayotida uning o'z o'rnini to'g'ri va mukammal darajada egallashi uchun ma'naviy-ruhiy asos, insoniy-ijtimoiy bazaning yaratilishi to'g'risida fikrlar qayd etilgan. Shuningdek, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashda pedagogik-psixologik xususiyatlar va ijtimoiy shart-sharoitlar muammosining o'rganilishi bo'yicha munosabatlar aniqlashtirilgani haqida ta'kidlar mavjud.

Kalit so'zlar: talaba-yoshlar, siyosiy ong, milliy qadriyat, rivojlantirish, ijtimoiy-pedagogik, imkoniyatlar, oliy ta'lim muassasalari, ijtimoiy jamiyat.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль высших учебных заведений в предоставлении социально-педагогических возможностей для развития политического сознания студентов и молодежи на основе национальных ценностей, а также соразмерность окружающей среды в них социальным условиям. Высказываются идеи о создании духовно-нравственной основы, гуманистической и социальной базы для развития студента в общественной жизни, его правильного и совершенного занятия своего места в обществе. Также приводятся положения, уточняющие взаимосвязь в изучении проблемы педагогико-психологических характеристик и социальных условий при предоставлении социально-педагогических возможностей.

Ключевые слова: студенты и молодежь, политическое сознание, национальные ценности, развитие, социально-педагогические, возможности, высшие учебные заведения, социальное общество.

Abstract. This article describes the role of higher education institutions in providing socio-pedagogical opportunities for the development of political consciousness of students and youth on the basis of national values, and the proportionality of the environment in them to social conditions. The ideas are expressed about the creation of a spiritual and spiritual basis, a human and social base for the student's growth in social life, his correct and perfect occupation of his place in society. There are also statements about the clarification of the relationship in the study of the problem of pedagogical and psychological characteristics and social conditions in providing socio-pedagogical opportunities.

Keywords: students and youth, political consciousness, national values, development, socio-pedagogical, opportunities, higher education institutions, social society.

Talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashda oliy ta'lim tashkilotlari o'rnini muhim pedagogik ahamiyatga ega. Talabalar o'z siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishga bevosita oliy ta'lim tashkiloti muhitida duch keladi. Ana shunda talabada to'g'ri, ijtimoiy

sharoitga mutanosib hamda davr talablariga javob beradigan mos ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar bilan ta'minlansa, talabaniing ijtimoiy hayotdagi unib o'sishi, jamiyat hayotida uning o'z o'rnini to'g'ri va mukammal darajada egallashi uchun ma'naviy-ruhiy asos va insoniy-ijtimoiy baza yaratilgan bo'ladi.

Oliy ta'lim tashkilotlarida talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari va ijtimoiy shart-sharoitlari muammosining o'rganilish masalalari bo'yicha munosabatlarni aniqlashtirib olishni taqozo etadi. Xususan:

- talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash tizimini tashkillashtiruvchi mutasaddilar va ular xususiyatlarini tahlil etish;

- talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashda ijtimoiylashuv omillari, darajalari, bosqichlari va mexanizmlarini belgilash;

- talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashda uzviylik va uzluksizlik mazmunini aniqlash.

Bugungi kunda yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash aslida tizimli tarzda amal qilinayotgan jarayondir. Ushbu jarayon biror bir pedagogik tamoyil, dastur yoki metod orqali tashkil qilingan, ya'ni yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashda zarur pedagogik bilim va malakalarga doir shakllar, vositalar hamda usullar bilan qurollantirilgan. Ko'pchilik oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatida talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish bo'yicha tegishli bilimlarni o'stirish, ularga ma'lum darajada ta'lim berish, ijtimoiylashuv mohiyati va uning globallashuv davri uchun ahamiyatini ko'rsatib berish zarurligi aniqlangan. Demak, talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash jarayonida, avvalo yoshlarning ijtimoiy-pedagogik tafakkurni o'stirish zaruriyati mavjudligini qayd etish lozim.

Amaliy holatdagi talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish jarayoni bo'yicha yuqorida ta'kidlangan muammoni – ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashni ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Agar biz pedagogik tajribasinnov ishlari jarayonida yoshlarning pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish bilan muntazam, maqsadli shug'ullansak hamda uning samaradorligini ta'minlasak, ijtimoiy pedagogik maqsadga erishish jarayoni jadallashadi. Talabalar ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari, keyin esa belgilangan innovatsion pedagogik texnologiyalari singdirilgan dars mashg'ulotlari orqali ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashga qo'yilgan talab amalga oshiriladi. Mamlakatimizdagi mavjud barcha oliy ta'lim tashkilotlarida talaba-yoshlarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini ta'minlashni oliy darajaga ko'tarmasdan turib, jamiyatda demokratik islohotlar ustunligi, shaxs taraqqiyoti, iqtisodiyotning modernizatsiyasi, boshqaruv sohasining liberalizatsiyasi, shuningdek fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishning boshqa yo'li yo'q.

Ayrim oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini ta'minlash bo'yicha yosh o'qituvchilar hamda talabaniing bilim, ko'nikma va malakalar darajasi belgilangan talab bilan qiyos qilinsa, katta tafovut, katta farq borligi ko'rinadi. Talabalarning mavjud bilim doirasini kengaytirish va siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashning murakkab tizimi bo'yicha oliy ta'lim tashkilotlaridagi pedagogik jarayonni maqsadli ravishda tegishli dasturlar, metodik

tavsiyalar, qo'llanmalar, metodik adabiyotlar bilan boyitish hamda takomillashtirishni taqozo etadi. Chunki ta'lim jarayonining mas'ul subyektlari ta'limni tashkil qilishda, uni boshqarishda, ta'lim mazmunini belgilashda, ta'lim sifati va samaradorligini monitoring qilishda mazkur masalaning natijasini namoyon qilishlari shart. Pedagogik faoliyat o'zini mana shu tarzda namoyon qilsagina, ijtimoiy-pedagogikaning natijaviyligi, uning samaradorligi va imkoniyatlari ta'minlangan bo'ladi.

Agar oliy ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonga mas'ul bo'lgan mutasaddilarning pedagogik faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjudligi oydinlashadi. Eng avvalo, biz mutasaddilarni o'qituvchi tarzida umumlashtirib nomlaymiz. Ular o'z xususiyatlari va xarakteri, bilim darajasi va dunyoqarashiga ega bo'lish bilan birga oliy ta'lim tashkilotlarida bir tizim, bir yaxlitlik asosida ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlashlari maqsadga muvofiq sanaladi. Agar yoshlar o'rtasida yaxlitlik, bir maqsadga yo'naltirilganlik mavjud bo'lmasa, tarbiyaning ijtimoiylashuvi jarayonida ba'zi kamchiliklar vujudga keladi va u kutilgan natijani bermaydi. Ammo biz har doim ham shunday, talab darajasidagi tizimli pedagogik faoliyatni oliy ta'lim tashkilotlarida uchratmaymiz. Shu bilan birga, ularning har biri juda kuchli tarzda pedagogik jarayon sifatiga o'z ta'sirini o'tkazishi mumkin. Shunga ko'ra, yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash jarayonida pedagog-o'qituvchilarning roliga alohida e'tabor berish zarur. Shundagina ularning o'zaro yaqin xususiyatlari bilan birga, o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi. Shuningdek, pedagog va talabalar birgalikda o'z faoliyatlarini hamkorlikda tashkil qilishlari yuzasidan ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlovchi tamoyil va yo'nalishlarga e'tibor qilish zarurligi aniqlanadi. Biz tadqiqot davomida ta'lim tashkilotlarining pedagog-o'qituvchilar uchun alohida ahamiyat kasb etuvchi xususiyatlarni belgilab oldik. Ular:

Pedagog xususiyatlar – pedagog-o'qituvchi ko'p hollarda yetakchi rol o'ynaydi. U rahbar rovida har doim ushbu guruhning pedagogik qiziqishlarini, ayniqsa pedagogik jarayonni boshqarishda bilim, ko'nikma va malakalar kerakligini to'liq tushunadi. Eng muhim talab shundaki, oliy ta'lim muassasalari talaba-yoshlarining siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash jarayoni uchun mas'ulligini oshirish, ularni mana shu vazifaga kamarbasta qilishdir. Chunki ta'lim-tarbiyada pedagog-o'qituvchilar o'z maqsadlari asosida qo'yilgan vazifalarni amalga oshira olishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Agar pedagog-o'qituvchilar tadqiqot maqsadini anglamasa hamda eksperimental tajribani qo'llab quvvatlamasa, ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar samaradorligini ta'minlay olmaydi. Chunki pedagog-o'qituvchilar – guruh boshqaruvchilari sifatida muhitni pedagogik eksperimentga qarshi qilib qo'yishi mumkin, yoki tushuntirish ishlari asosida muhitni pedagogik eksperiment hamkorlariga aylantirishlari mumkin.

Ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlar samaradorligi bevosita pedagog-o'qituvchining irodasi, uning ko'magi, pedagogik maqsadlarni anglaganligi, mas'uliyati va irodasiga bog'liq bo'ladi. Pedagog-o'qituvchi ko'pincha amallarni bajaruvchi sifatida emas, mana shu amallarni bajarishga barchani rag'batlantiruvchi, yo'naltiruvchi inson sifatida o'zini namoyon qiladi. Ya'ni, yo'l ko'rsatish, rag'batlantirish, jazolash, xulosalar chiqarishi orqali o'z boshqaruvchanligini namoyon etadi. Pedagogning boshqaruvchanligi talabalarga yo'naltirilgan bo'ladi. Ya'ni, pedagog-o'qituvchi o'zini amallarni bajaruvchi sifatida emas, balki mazkur amallarga boshqalarni yo'naltiruvchi sifatida o'z funksioyalligini ko'rsatadi va unga qo'yiladigan qator pedagogik talablar mavjud. Ular: to'liq mas'ullik, keng va har tomonlama bilim va dunyoqarash, boshqarish malakalari, maqsadga yo'nalغانlik, faollik, ijodiylik, ta'lim tashkiloti va jamiyat manfaatlarini birlashtira olish, samimiyluk, ochiqlik,

demokratizm, to'liq talabga javob berish, refleksiya, monitoring, salbiy oqibatlarni ko'ra bilish, ularning oldini olish kabilardan iborat bo'ladi.

Tyutor xususiyatlari – tyutorlar ham ta'lim uchun mas'ul hisoblanadi. Biroq, bu mas'uliyatning o'ziga xos xususiyati shundaki, tyutorlar ta'limni ichkaridan boshqaradilar va o'zlarini ushbu ijtimoiy jamiyatga menejer sifatida ochiqchasiga taqdim etadilar. Pedagogik boshqaruv usullarining amalga oshirilishida aynan tyutorlar faoliyatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, pedagog-o'qituvchi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan maqsadlarni "tartibga soluvchi" va ularni amalga oshirish uchun sharoit yaratgan bo'lsa, u holda tyutorlar o'zlarining pedagogik vazifalarini bajarish uchun keng ko'lamli tadbirlarni tashkil qilishlari mumkin. Biroq, pedagog-o'qituvchi maqsadlarni tushunmasa va ularni "tartibga solmasa", tyutorlar o'z pedagogik vazifalarini bajarishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi.

Tyutorlardan tarbiyada keng ijtimoiy pedagogik bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Ular tyutorlarga ijtimoiy tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun zarur bo'ladi. Pedagog-o'qituvchidan ko'proq – masala mohiyatini anglagan holda o'z faoliyatini namoyon qilish talab etilsa, tyutorlardan aniq bo'lgan amallarni bajarish va ijtimoiy pedagogik jarayonni bevosita tashkil qilishni, amaliyotchi pedagog sifatida o'z imkoniyatlarini ishga solishni, bajarishni taqozo etiladi. Shu nuqtai nazardan tyutorlardan pedagog-o'qituvchiga nisbatan ko'proq aynan ijtimoiy pedagogik shakllar, vositalar va usullarga oid bilim, ko'nikma va malakalar talab etiladi. Agar tyutor ijtimoiy tarbiya bo'yicha mana shunday bilimlar bilan to'liq qurollangan bo'lsagina, u pedagogik faoliyatni maqsadli tashkil qila oladi va ijtimoiy pedagogik samaradorlikni ta'minlashi muqarrar. Tyutorlar faoliyatini olib borishi davomida qator pedagogik talablarga amal qilishlari zarur. Ular: o'ta mas'uliyatlilik, faollik va sayi-harakat, jamiyat manfaatlarini anglash, bilim, samara, natijalilik, yo'l ko'rsata olish, ishonch, talabga javob, samimiylik, ochiqlik, ijodiylik, ijtimoiy pedagogik shakl, vosita va usullarni egallaganlik, kundalik bevosita faoliyat, refleksiya, tahlil qila olish, talabalar shaxsiy va kasbiy xususiyatlari hamda layoqatlarini anglash, sharoit yaratib bera olishlik, to'g'rilik, pedagogik mahorat kabi xususiyatlardan iborat.

Talaba-yoshlarning siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishda ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarni ta'minlash jarayonini tashkillashtiruvchi shaxslardan insoniylik, mutaxassislik, bilim va dunyoqarash, turli voqeya-hodisalarga munosabati va oqilona yechimi orqali, ko'p hollarda pedagogik jarayonga ijobiy, yoki salbiy, o'ta ijobiy, yoki o'ta salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin. Ijobiy (o'ta ijobiy) ta'sir o'tkazish va uning natijalari sifatida – talabalar siyosiy ongini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishi, o'z ustida ishlashi, qiziqish, o'zini va o'z imkoniyatlarini namoyon qilishi, faol bo'lishi, o'z o'rnini topishi, o'ziga, oilasi va jamiyatga foydali inson bo'lib voyaga yetishi, uddaburolik, yaqinlariga mehr-muruvvatli, har tomonlama barkamol bo'lish, ilg'orlik, tashabbuskorlik, kreativlik, maqsadga yo'nalganlik, muammolardan cho'chimaslik, o'z kelajagiga to'liq ishonchi, kelajakni qanday qurishni bilish, kelajakka intilish, ijtimoiy muammollar yechimiga tayyorlik, muntazam o'sish-ulg'ayish hoxishi, o'z layoqatlarini ishlatish va namoyon qilish, munosib ish o'rniga egalik va insoniy fazilatlar uyg'onishini qayd etishimiz mumkin. Salbiy ta'sir (o'ta salbiy) va uning natijalari sifatida – deviantlik, ijtimoiylashmaslik, siyosiy-ijtimoiy ongsizlik, histuyg'ular, o'ziga ishonmaslik, erinchoqlik, passivlik, muammolardan qochish, o'z imkoniyatlarini anglamaslik, tushkunlik, turli emotsional-psixologik komplekslar, ijtimoiy jamiyatdan qochish, o'z noshudligini oqlash va uni agressiya ortiga yashirish, barchaga qarshi bo'lish, o'z manfaatlarini anglamaslik, muvaffaqiyatsizlik, o'z istiqboliga ishonchning yo'qligi, yaqinlarini o'z xatolarida ayblash, hayotda to'g'ri yo'lni topa bilmaslik,

boqimandalik, o'z mas'uliyatidagi vazifalarni boshqalarga yuklash, mas'uliyatdan qochish, sustlik, qarorlar qabul qila olmaslik kabi xususiyatlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh. Ma'naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak // Prezident Shavkat Mirziyoyevning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan majlisidagi nutqi. 22.12.2023 // <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
2. Mavrulov A. Axloqsizlik – yangi axloqmi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2010. – 182 b.
3. Murtozayeva M.M. Umumiy pedagogika: darslik. – T.: Zuxro baraka biznes, 2025. – 360 b.
4. Musurmanova O. Milliy qadriyatlar – oila ma'naviyati poydevori. Monografiya. – Toshkent: Zarvaraq nashriyoti, 2023. – 113 b.
5. Toshpo'latov N., Nomozov M. Markaziy osiyo mamlakatlarining madaniy va ma'rifiy hayoti / Journal of Marketing, Business and Management. Volume 3, Issue 7 (December). – Page 80-83.